

COVID-19: Qozog'istonga kirish qoidalari kuchaytirildi

2022 18 Yanvar

Qozog'iston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo'yicha Idoralararo komissiyaning qaroriga muvofiq respublikada epidemiologik vaziyatning yomonlashuvi va «omikron» shtamming tarqalishi tufayli sanitariya-karantin choralari kuchaytirildi, jumladan:

- 2022-yilning 15-yanvaridan boshlab, emlanganlik holatidan qat'iy nazar, barcha chet eldan keluvchilarda chegarani kesib o'tgan vaqtdan oldin ko'pi bilan 72 soat ichida topshirilgan PZR testining manfiy natijasi bo'lishi shartligi belgilandi;
- 5 yoshgacha bo'lган bolalardan ularga hamrohlik qiluvchi shaxslarning ma'lumotnomasi mavjud bo'lsa, PZR testi talab etilmaydi;
- COVID-19 uchun PZR testining manfiy natijasi yo'q bo'lган taqdirda, yo'lovchilar, shu jumladan Qozog'iston Respublikasi fuqarolari va Qozog'iston Respublikasi hududida yashash uchun ruxsatnomasi bo'lган shaxslar uchish aeroportidan havo kemasiga kiritilmaydi.

Qozog'iston hududiga kirish qoidalari bilan bat afsil quyidagi havola orqali Tanishing: <https://www.uzairways.com/uz/covid-19-0>

Telegram: t.me/uzbekistanairways